

GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA FARG'ONA VODIYSIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH

Jobborov A'zam Mashrabovich

Qo'qon Davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakul'teti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasida dotsenti, biologiya fanlari nomzodi (O'zbekiston).

Annotation

Ushbu maqolada global iqlim o'zgarishi davrida Farg'ona vodiysi tabiiy suv resurslarini holati va ulardan foydalanishni hozirgi kundagi muammolari haqida qisqacha ilmiy, ommabop ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek chuchuk suv muammosini oldini olishga qaratilgan fikrlar va mulohazalar yoritilgan.

Keywords: Global iqlim o'zgarishi, Farg'ona vodiysi suv resurslari, daryolari va ularning taqsimlanishi, daryolar suvlaridan foydalanish, qurg'oqchilikka moslashgan qishloq xo'jaligi, tabiiy va sun'iy adaptasiya.

O'zbekiston hududini 78,7 % ini tekisliklar asosan cho'l va chala cho'llar egallagan. Tog' va tog' oraliqlari 21,3 % xududini egallagan bo'lib ularda bir qator tog' vodiylari joylashgan. Masalan : Chirchiq-Ohangaron, Farg'ona, Zarafshon, Surxon-Sherobod, Sangzor vodiylari. Chirchiq-Ohangaron, Surxon-Sherobod, Sangzor vodiylari to'liq, qolgan vodiylarni asosiy qismi siyosiy-ma'muriy jihatidan O'zbekiston respublikasi xududida joylashgan. O'zbekiston tog' vodiylari ichida xar jixatidan ya'ni maydonini kattaligi, axolisini soni va zichligi, tuproqlarini unumdorligi, ichki suv resurslariga boyligi, qadimdan obikor dexqonchilikni rivojlanganligi, transportni barcha turlarini (suv transporti bundan mustasno) rivojlanganligi bilan yetakchi o'rinda turadigani bu – Farg'ona vodiysidir. Ichki suv manbalarining yetarli darajada bo'lishi Farg'ona vodiysining tog' oldi tekisliklari konussimon yoyilmalarini, qayir va qayir usti terrasalarini, adir oralig'i va adir orti tekisliklarini, Markaziy Farg'ona cho'llarini, xatto adirlarni ham keng ko'lamda o'zlashtirib sug'oriladigan voha landshaftlariga aylantirishga katta imkon bergan.

Farg'ona vodiysidagi asosiy suv manbai bu Sirdaryo va uning asosiy va doimiy irmoqlari Norin va Qoradaryodir. Vodiydagi qolgan barcha daryo, soy va jilg'alar Sirdaryoga kech kuz, qish va bahor fasllarida quyiladi xolos. Bunga sabab o'sha daryolarni bo'ylarida va vodiylarida axoli soni, zichligi hamda obikor dexqonchilikni rivojlanganligidir. Farg'ona vodiysini markaziga tomon vodiyni shimoldagi Qurama va Chotqol tog' tizmalarining janubiy yonbag'irlaridan vodiyning markazi tomon oqib tushuvchi 30 ga yaqin daryolar va soylar bo'lib eng muximlari: Chodaksoy, G'ovasoy, Pochchaota, Kosonsoy, Chortoqsoy, Sumsarsoy, Qorasuv.

Farg'ona vodiysining janubdagi tog'lardan (Turkiston va Oloy tog'larining shimoliy yon-bag'irlaridan) vodiyning markazi tomon oqib tushuvchi daryo va soylar: Shoximardonsoy, So'x, Xo'jabaqirg'on, Isfara, Isfayramsoy, Oqbura, Arovonsoy, Qurshob, Daxanasoy.

Farg'ona vodiysiga sharqdagi tog'lardan ya'ni Markaziy Tyanshan va Farg'ona tog' tizmasining g'arbiy yon-bag'irlaridan vodiyning markazi tomon oqib tushuvchi daryo va soylar: Norin, Qoradaryo, Yassi, Ko'gart, Qorao'ng'ir, Moylisuv.

Farg'ona vodiysining g'arb tomoni ochiq (tog'lar bilan o'ralmaganligi) bo'lganligi sababli tog'lar va daryolar yo'q (vodiyning shimoli-g'arbi va janubiy-g'arbi bundan mustasno), Sirdaryo esa g'arb tomonga oqib chiqib ketadi.

Farg'ona vodiysining atroflaridagi tog' yon-bag'irlari va adirlarida vodiyning tekislik qismiga nisbatan yog'in miqdori birmuncha ko'p bo'ladi. O'sha hududlarda yer usti suvlaridan tashqari yer osti suvlari ham ko'p shakllanadi. Yer osti suvlari re'lefining nishab tomoniga, ya'ni Farg'ona vodiysining markaziy qismiga tomon doimiy harakat qiladi. Natijada vodiyning atroflaridan markaziga borgan sari er osti suvlarining satxi ko'tarilib boradi. Masalan adirlarda yer osti sizot suvlari 80-100 m chuqurliklarda uchrasa, vodiyning markaziy qismlarida 2-3 m chuqurliklarda, Sirdaryo bo'ylarida esa 0,5-1 m. chuqurliklarda uchraydi. Ba'zi joylarda esa yer osti sizot suvlari asta-sekin er betiga sizib chiqadi va buloqchalarni hosil qiladi.

So'nggi yillarda global iqlim o'zgarishi va aholi sonining keskin oshishi shuningdek obikor dehqonchilikning (ekstensiv va intensiv) rivojlanishi munosabati bilan Farg'ona vodiysida chuchuk suv muammosi tobora og'irlashib bormoqda. Bu holat nafaqat mahalliy balki davlatlararo (O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston) ziddiyatlarni kuchayishiga olib kelmoqda. Yuqoridagi chuchuk suv muammosi va uning oqibatida kelib chiqadigan ziddiyatlari sabab Farg'ona vodiysining O'zbekiston qismida qishloq xo'jaligida so'nggi yillarda tomchilatib sug'orish, yomg'irlatib sug'orish, qurg'oqchilikka moslashgan qishloq xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Masalan adir va tog' oldi mintaqalarida bodom, yong'oq kabi mevali daraxtlarni ko'paytirish qolaversa bog'dorchilikning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga e'tibor kuchaymoqda. Suvni ko'p talab qiluvchi ekinlar (sholi, makkajo'xori, g'o'za) maydoni tobora qisqarib bormoqda. Mavjud bo'lgan qishloq xo'jaligida ertapishar va suvni kam talab qiluvchi ekin turlariga e'tibor kuchaymoqda.

References:

1. Жобборов А. М., Тожибоева М. А., Мелиев М. Фарғона водийси ва унинг чўллари "Учённый XXI века" научный журнал Россия 2020 № 4-2 . 3-5-betlar
2. Jobborov A. M. Physical and geographical features of the Fergana Valliy. INTERNATIONAL JURNAL OF ORANGE TECHNOLOGIES Vol. 3 No. 3 (2021): IJOT Scientific Journal Impast Factor: 5.954 Journal Impast Factor: 6. 875 94-97
3. Jobborov A. M. ,Tojiboeva M. A., Mashrabjonov U. A. CAUSES OF GLOBAL CLIMATE CHANGE AND MEASURES TO PREVENT IT. Procedia of Theoretical and Applied

Sciences. International Symposium of Life Safety and Security ISSN: 2795-5621 Available: <http://procedia.online/index.php/app-lied/index> Volume 24, December-2022// Page 51-53

4. Isomiddinov Z.J. Absolution Capacity of Irrigated Gray-Brown Fulvous Soils. International Conference on Multidisciplinary Research and Innovative Technologies <http://academiascience.org/> 2021. 267-268 pp.

5. Mashrabjonov Ulug'bek A'zamjon o'g'li. МАТЕМАТИКА FANIDAN DARS O'TISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METODLARDAN. Miasto Przyszłości. June 2022

6. Назаров Х.Ё., Жобборов А.М., Тожибоева М.А. Талабалар географик маданиятини шакллантиришга инновацион ёндошув. “Ўзбекистон Республикаси олий таълими-инновацион ривожланиш йўлида”. Қўқон шаҳар. 2019. 131-135 bet

7. Ostonoqulov I., Mamatqulova T. A. XIX asr Farg'ona vodiysi tarixini o'rganishda Rojiiy Marg'inoniy merosining o'rni. “O'tmishga nazar” Toshkent –2021 392-397 bet

8. Tojiboyeva M. A. O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasini tabiatini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiya vositalaridan foydalanish. Geografik tatqiqotlar; innavatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari. Республика илмий-амалий конференция материаллари. Toshkent. 2022. 775-779 bet